

VII. ISTE'MOL BOZORI

2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 491,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,7 %ga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi

	mlrd. so'm	2021- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida	Yakunga nisbatan % hisobida
Jami	6 491,5	120,7	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	0,9	150,0	0,1
nodavlat mulki	6 490,6	133,7	99,9

Yirik savdo korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2022- yil yanvar-mart oylarida 2 071,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 marttaga oshgan.

Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo tovar hajmi joriy yilning yanvar-mart oylarida 4 420,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,8 %ni tashkil qilgan.


2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	mlrd. so'm	2021- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida	Yakunga nisbatan % hisobida
Chakana savdo tovar aylanmasi	6 491,5	120,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	2 071,2	3,1 m.	31,9
kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik	4 420,3	93,8	68,1
shu jumladan: uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	448,8	106,3	6,9

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi

	2021- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m	o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	4 841,0	6 491,5	120,7
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	224,5	363,3	145,7
Olmaliq	369,6	429,5	104,6
Angren	289,0	418,3	130,3
Bekobod	212,4	249,4	105,7
Ohangaron	71,9	83,2	104,1
Chirchiq	251,4	300,6	107,7
Yangiyo‘l	272,5	316,3	104,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	183,8	205,5	100,7
Ohangaron	50,8	59,1	104,7
Bekobod	107,6	119,7	100,2
Bo‘stonliq	289,7	336,5	104,6
Bo‘ka	151,5	179,5	106,7
Quyichirchiq	95,5	112,3	105,9
Zangiota	852,2	1629,8	172,2
Yuqori Chirchiq	154,1	179,5	104,8
Qibray	319,2	386,1	108,9
Parkent	184,3	214,1	104,6
Piskent	103,8	117,4	101,9
O‘rta Chirchiq	61,3	73,2	107,6
Chinoz	194,1	231,0	107,2
Yangiyo‘l	161,8	181,7	101,1
Toshkent	240,0	305,5	114,6


Hududlarning jami chakana tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (%da)



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 171,7 mlrd. so'mga yetdi yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,3 %ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish faoliyatini qo'shgan holda) aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda 122,1 %ni va 2 202,7 ming so'mni tashkil etdi (2021- yilning yanvar-mart oylarida 1 624,0 ming so'mni tashkil etgan).

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi (%da)



Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori ulush Zangiota (25,1 %), Qibray (5,9 %), Bo'stonliq (5,2 %) tumanlari hamda Olmaliq (6,6 %) va Angren (6,4 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	2 202,7	122,1
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	6 868,1	142,4
Olmaliq	3 167,2	103,1
Angren	2 391,9	142,9
Bekobod	2 488,7	102,4
Ohangaron	2 073,7	101,5
Chirchiq	1 818,4	106,2
Yangiyo'l	3 948,4	80,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	1 894,3	98,8
Ohangaron	550,7	94,8
Bekobod	744,6	99,5
Bo'stonliq	1 945,2	103,6
Bo'ka	1 375,3	104,5
Quyichirchiq	1 001,0	104,1
Zangiota	9 707,2	2,0 m.
Yuqorichirchiq	1 330,3	108,5
Qibray	2 233,2	127,6
Parkent	1 240,7	95,6
Piskent	1 132,2	100,4
O'rta Chirchiq	548,5	115,0
Chinoz	1 655,0	104,8
Yangiyo'l	944,1	110,4
Toshkent	1 623,1	111,8

2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2 202,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,1 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Zangiota (9 707,2 ming so'm) va Qibray (2 233,2 ming so'm) tumanlari hamda Nurafshon (6 868,1 ming so'm) va Angren (2 391,9 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'rta Chirchiq (548,5 ming so'm), Ohangaron (550,7 ming so'm), Bekobod (744,6 ming so'm) va Yangiyo'l (944,1 ming so'm) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

